

KONSTITUTSIYA DAVLATNING BOSH QONUNIDIR

Jo'rayev O'zbekxon Dilshodbek o'g'li

Farg'ona viloyat yuridik texnikumi o'quvchisi

Telefon: +998908451200

E-mail jurayevxofiz@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15522461>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif konstitutsiya haqida fikrlar yuritgan O'zbekiston bu borada qanday yo'l tutdi. Yangi O'zbekiston mustaqillik yillarida xalqimizning manfaatlarini ko'zlab siyosiy konstitutsiya qabul qilgani haqida fikrlar bayon etgan.

Kalit so'zlari: Konstitutsiya asosiy qonuni qanday maqsadda yaratilganligi asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligi shu haqida so'z yuritish ekanmiz. Asosiy yo'nalish sifatida e'tirof qilib xalqimizning manfaatlarini ta'minlash himoyalash va huquqiy tenglik tamoyilini kafolati sifatida davlat konstitutsiya bilan ish yuritadi.

Abstract. In this article, the author reflects on the constitution, and how Uzbekistan has acted in this regard. He expressed his opinion that during the years of independence, New Uzbekistan adopted a political constitution for the interests of our people.

Key concepts: We are talking about the main purpose and tasks of the constitutional law. Recognizing as the main direction the protection of the interests of our people and the guarantee of the principle of legal equality, the state works with the constitution.

Аннотация. В этой статье автор размышляет о конституции и о том, как Узбекистан действовал в этом отношении. Он выразил мнение, что в годы независимости Новый Узбекистан принял политическую конституцию, отвечающую интересам нашего народа.

Ключевые понятия: Речь идет об основной цели и задачах конституционного права. Признавая главным направлением защиту интересов нашего народа и обеспечение принципа юридического равенства, государство работает с конституцией.

Konstitutsiya asosiy qonuni qanday ta'riflanadi bu davlatning asosiy bosh qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini, advokatura, prokuratura sohalaridagi bilimlarni belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Konstitutsiya haqida so'z yuritilganda birinchi o'rinda muqaddimga qarashimiz shart. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida muqaddimasida shunday deyilgan.

Biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, degan jumlasini katta ahamiyatga egadir. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bu so'zlar oltinga tengdir. Milliy urf-odatlarini an'analari mavjudligi unga amal qilish shartligi, insoniylik qadriyatlarga tayanib ish yuritish eng katta mas'uliyatli ishdur. Yangi O'zbekiston shiori ostida yangi konstitutsiya yangilanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Eng kerakligi xalq referendum orqali o'tkazilgan asosiysi xalq rozi bo'lganligi uchun tasdiqlandi. Mazkur yangi tahrirdagi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida 1- moddasiga asosan davlat shakli shakllanishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

2-moddasiga asosan Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. Shu o'rinda hozirgi Prezidentimizning so'zlarini eslashimiz to'g'ri deb bildik, Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan vaqt keldi" — Shavkat Mirziyoyev Prezident amaldorlarga fuqarolarning har qanday muammolarini hal etish davlatning asosiy majburiyatlaridan biri ekanini eslatib o'tdi. Bu qanchalik adolatlidir.

3-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir. Davlatning shakllantirish uchun uning xalqi va hududi daxlsizligi bo'lishi shartdir Yangi O'zbekiston ham shu borada konstitutsiyada qat'iy belgilab qo'yildi.

4-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Barcha xalqlarning tili dini millat sha'ni qadr-qimmatini erkinligi himoyalangan jamiyatda fuqarolar kelajakka ishonch bilan qarashiga asos bo'ladi shu o'rinda qonunchilik borasida belgilanishi aytilgan

5- moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega. Davlat ramzlari davlat himoyasidadir. Albatta bizning davlatimiz yangi O'zbekiston ham bu borada xalqimizning qadimiy milliy qadriyatlar uyg'unligi bilan bir-biridan ajoyib shakllangan xalqimiz bimalol davlatimiz bayrog'ini uylariga osib qo'yishlari bimalol etib qo'yildi. Ammo davlat bayrog'ini ulug'lab ardoqlab, avaylash sharti bilandir.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyani yaratish haqidagi ilk g'oya Respublikamizning 1990-yil mart oyida bo'lib o'tgan XII chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasidayoq aytilgan edi. O'zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi" mamlakatimiz yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo'ldi. O'sha kuniyoq Oliy Kengash O'zbekiston Prezidenti boshchiligida 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Komissiya tarkibiga deputatlar davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar mutaxassislar kirdi. Va Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan konstitutsiyaning konsepsiyasi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada uchta muqobil konsepsiya yaratildi: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi, Siyosatshunoslik va boshqaruv institutining konsepsiyasi va Prezident devoni yuridik bo'limi tayyorlagan konsepsiya. Ishchi guruh majlisida uchinchi konsepsiya asos sifatida qabul qilindi. Konstitutsiya loyihasining dastlabki varianti 1991-yil 3-choragida tayyorlab bolindi. U muqaddima, olti bo'lim, 158 moddadan iborat bo'ldi.

Bu orada 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishdi. Buning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonuni

qabul qilindi. Mazkur hujjatga 1991-yil 30-sentabrda Konstitutsiyaviy qonun maqomi berildi.[1] Qonunda xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu demokratik prinsiplar Konstitutsiya mazmunidan joy oldi. Shu kuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida "Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti» ham e'lon qilindi. Shunga qaramasdan dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. 1992-yil bahorda Konstitutsiya loyihasining 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bolib otdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risida axborot tinglandi. Shu tariqa ishchi guruh tomonidan Konstitutsiya loyihasining uchinchi varianti tayyorlandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so'ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi qariyb uch oy davom etdi. Unda mamlakatda yashovchi turli millat vakillari ishtirok etdi. Matbuotda, radio va televideniye orqali, korxona, muassasa hamda tashkilotlardagi yig'ilishlarda, auditoriyalarda qizg'in muhokamalar bo'lib o'tdi. Konstitutsiyaviy komissiya dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida muhokama qilingan loyiha fuqarolar taklif va mulohazalari asosida qayta tuzilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi.

Ayni vaqtda umumxalq muhokamasi davomida loyihani yaxshilashga doir ko'plab taklif va mulohazalar bildirildi. Konstitutsiya komissiyasining o'zigagina 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza tushdi. Tushgan taklif va mulohazalarning hammasi atroflicha puxta o'rganildi hamda loyiha ustidagi ishlarni davom ettirish chog'ida ulardan foydalanildi. Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Respublika matbuotining o'zida Konstitutsiya loyihasiga bag'ishlangan yuzdan ortiq materiallar e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida muhokama qilish uchun kiritilgan Konstitutsiya loyihasiga 80 ga yaqin o'zgartishlar, qo'shimchalar taklif etildi va aniqliklar kiritildi. Ularning ayrimlari muhim ahamiyatga ega edi. Parlament sessiyasining ishi davomida deputatlar ham bir unga qator o'zgartishlar kiritdilar. Ularning ayrimlari muhim ahamiyatga ega edi. Parlament sessiyasining ishi davomida deputatlar ham bir unga qator o'zgartishlar kiritdilar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi dunyoga kelishiga asosan ikkita omil sabab bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning bozor munosabatlari tomon tutgan yo'li, yangi taraqqiyotdagi umumiy qonuniyatlar va yonalishlarga muvofiq ravishda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bo'ldi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilinishini taqozo etgan ikkinchi omil boldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilishning tarixiy zaruratiga qoyidagilar kiradi: - sobiq Ittifoqda paydo bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tanglik; - O'zbekiston Respublikasini o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi hamda dunyo xaritasida yangi suveren O'zbekiston Respublikasini tashkil topishi; "Mustaqillik deklaratsiyasi"ni va "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qilinishi Konstitutsiyani qabul qilishga huquqiy asos boldi:- O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurishni maqsad qilib qo'ydi; Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi Asosiy Qonun sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrar.

Sobiq Rus davlati tarkibiga o'zbek davlati kirgan paytlar xalqimizning qora kunlari albatta tariximizdan o'chmasdir. Inson huquqlari buzilishining eng oliy maqsadlari edi sobiq

sovet Ittifoqi judda ham zolim hukmdorlar tomonidan boshqarilgan. Bu ezilib ketgan xalq xozirda mustaqil o'zining sha'ni qadr-qimmati erkinligi himoyalangan jamiyatda yashayabdi. Yangi O'zbekiston mustaqillik yillarida xalqimizning manfaatlarini ta'minlash himoyalash usullari ancha mustahkamlab qo'yildi bu albat bosh qonun konstitutsiyadir bu xalqimizning o'zbekona milliy qadriyatlar uyg'unligi ruhida o'z xalq ovozi bilan tasdiqlangan konstitutsiyamiz bordir. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirlangan konsultatsiyasida shaxsiy huquqlar va erkinliklar bo'limida shunday belgilangan. 25- moddasiga asosan:

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi. Bu borada inson o'z joniga qast ham qilolmaydi va davlatda qonunan o'lim jazosi yo'qdir deb belgilanishi shu darajada konstitutsiya xalq manfaatlarini ko'zlagan qonunligidir.

26- moddasiga asosan: Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

Konstitutsiya asosiy qonuni eng zaril kerakli qonunligi yaqqol isbotidir. Chunki barcha qonunlar konstitutsiya asosida tuziladi va undan chetga chiqish va zid kelmasligi qonunan belgilab qo'yildi. Bunday holatlarda Konstitutsiyaviy sudi ko'rib o'rganib chiqadi. Davlatni adolatli boshqarish ham tabiiyki konstitutsiyaga tayanib undan chetga chiqmasdan, boshqarilishi shartligi, insoniylik qadriyatlarga tayanib ish ko'rishligi shartdir.

REFERENCES

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.
2. O.T. HUSANOV KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ Darslik
3. Husanov O.T., 2020-y., 2021-y., 2022-y. © «Yuridik adabiyotlar publish», 2020-y., 2021-y., 2022-y